

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyun holatiga 2485,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 20,9 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sgan.

E'tibor bering:
2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **20,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **21.0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8.0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **7,7 mingta nikoh** va **2,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent shahar aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun)

Tirik tug'ilganlar
21,0 ming bola

Tabiiy o'sish
+13,0
ming kishi

Vafot etganlar
8,0 ming kishi


Aholining
umumiyo'sishi
20,9
ming kishi

Ko'chib kelganlar
12,9 ming kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
+7,9
ming kishi


Ko'chib ketganlar
5,0 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
 (2018 yil 1 iyun holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyun holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 355,7 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontoxur tumanida 333,2 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 33,4 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 118,1 ming kishi (4,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 2,7 %ga, Bektemir va Yashnobod tumanlarida 1,5 %ga, Uchtepa tumanida 1,8 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Chilonzor tumanida 1,3 % ni, Mirzo Ulug'bek tumanida 1,4 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 21,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 16,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Mirobod tumanida (13,8 promilledan 15,5 promillega) Sergeli (19,5 promilledan 20,5 promillega) Mirzo Ulug'bek tumanida (12,8 promilledan 14,2 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500

Qiz bolalar:
10,2
ming nafar



O'g'il bo-lalar:
10,8
ming nafar

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-iyun

	2017y.	2018y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahar tumanlar:			
Uchtepa	19 898	21 015	105,6
Bektemir	2 474	2 525	102,1
Yunusobod	366	387	105,7
Mirzo Ulug'bek	2 649	2 741	103,5
Mirobod	1692	1895	112,0
Shayxontoxur	911	1 038	113,9
Olmazor	2 854	2 965	103,9
Sirg'ali	3 091	3 256	105,3
Yakkasaroy	1664	1801	108,2
Yashnobod	688	745	108,3
Chilonzor	1 718	1 756	102,2
	1 791	1 906	106,4

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 8,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koefitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 6,8 promille bo'lgan).

O'lim koefitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Mirobod tumanida (7,5 promilledan 7,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Sergeli (8,0 promilledan 7,3 promillega), Chilonzor (8,8 promilledan 8,2 promillega), va M.Ulug'bek (7,7 promilledan 7,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
4,3 ming
kishi

Ayollar:
3,7 ming
kishi


Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-iyun

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati foizda
Toshkent shahar	8 161	8 027	98,4
tumanlar:			
Uchtepa	858	861	100,3
Bektemir	119	121	101,7
Yunusobod	1 074	1 072	99,8
Mirzo Ulug'bek	1 005	979	97,4
Mirobod	493	519	105,3
Shayxontoxur	794	770	97,0
Olmazor	1 054	1 035	98,2
Sirg'ali	679	642	94,6
Yakkasaroy	311	302	97,1
Yashnobod	976	921	94,4
Chilonzor	798	805	100,9

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 13,8 %i o'simtalardan, 5,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,9 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 60,7 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 13,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,3 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 11,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
13,0 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,7 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori osish sur'atlari Yakkasaroy (139,2%), Shayxontohur (118,8%), Yunusobod (117,2%), tumanlarda tog'ri

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirobod (150,0%), Sirg'ali (140,2%), Chilonzor (129,4%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)



	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahri tumanlar:						
Uchtepa	753	837	111,2	154	196	127,3
Bektemir	156	167	107,1	40	41	102,5
Yunusobod	871	1021	117,2	268	259	96,6
Mirzo Ulug'bek	710	666	93,8	218	222	101,8
Mirobod	327	353	108,0	94	141	150,0
Shayxontoxur	886	1053	118,8	199	202	101,5
Olmazor	818	944	115,4	210	246	117,1
Sirg'ali	686	743	108,3	164	230	140,2
Yakkasaroy	273	380	139,2	77	72	93,5
Yashnobod	674	696	103,3	202	229	113,4
Chilonzor	671	804	119,8	163	211	129,4

Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 12,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 7,9 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida 7,6 ming kishi bo'lган.



Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	13,2	12,9
Ko'chib ketganlar	5,6	5,0
Migratsiya saldosi	7,6	7,9

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yunusobod (0,8 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (0,7 ming kishi) Yashnobod va Chilonzor (0,6 ming kishi) xamda Uchtepa va Sergeli tumanlarida (0,5 ming kishi) qayd etildi.